

VATAN VA MUHABBAT KUYCHISI

Komiljonova Tabassum G'ulomboy qizi
Komiljonova Sarvinoz G'ulomboy qizi

*Urganch Ranch texnologiya universiteti Pedagogika va chet tillari fakulteti
magistrantlari*

Annotatsiya: Muhammad Yusuf (1954–2001) zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri hisoblanadi. U o'z asarlarida xalqning qalb kechinmalarini, o'zbek milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mehr-oqibat va insoniylikni ulug'lagan. Uning she'rlari o'ziga xos samimiylilik va hayotiylik bilan ajralib turadi. Muhammad Yusuf she'rlari har doim o'zbek kitobxonining qalbida alohida o'rinn tutadi. Shoiring asarlari orqali inson qalbi go'zallik va yaxshilikka oshno bo'lib, yangi ma'naviy kuch bilan to'ladi. Bu she'riy izhorlar ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etganligi bilan qadrlanadi.

Kalit so'zlar: Ona Vatan, muhabbat kuychisi, milliy qadriyatlar, ishonch, sog'inch, milliy ruh, vatanparvarlik, ma'naviyat, odob-axloq, oilaviy qadriyatlar, tabiatni sevish.

O, ota makonim

Onajon o'ljam

O'zbekiston, jonim to'shay soyangga

Ona Vatan, ota yurt tushunchalari oddiy bir atama emas, balki shu yurtda yashovchi, qolaversa insonning qon qoniga singib ketgan tuyg'ulardan biri desam mubolag'a bo'lmaydi. Inson tug'ilibdiki, kindik qoni to'kilgan joyni "VATAN" deya ardoqlaydi. Har bir tirik jon dunyoda yashar ekan o'z vataniga sodiq va bardavom xizmat qilishga harakat qiladi. Shunday oliytabiat insonlardan biri O'zbek xalq shoiri Muhammad Yusufdir. Uni biz beziz "Vatan va muhabbat kuychisi" deb atamaymiz.

Shoiring hayoti va sermahsul ijodi haqida ozmi ko'pmi ma'lumotga egamiz. Shoир goldirgan boy ma'naviy merosni o'rGANAR ekanmiz unda jimjimadorlik yo'q, unda ko'ngil tuyg'ulari oddiy va sodda tilda bitilgan. Shu asnoda shoир o'z o'quvchisiga ichki kechinmalarini yuqtiradi.

Vatan kuychisi Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumanining Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Shoirimiz O'zbekistondagi eng yosh xalq shoiri sanaladi. Chunki uning dastlabki she'rlari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida 1976-yil 22 yoshida chop etilgan. U o'nga yaqin she'riy to'plamlar va ko'plab qo'shiqlarning muallifi hisoblanadi.

Ona diyor va istiqlol kuychisi Muhammad Yusuf Ona Vatan tarannumiga bag'ishlangan ko'plab she'rlari bor. Shulardan "Iqror" nomli tahlili bilan maqolamni davom ettirmoqchiman.

She’rda ham inson va hayot, Ona vatan tushunchasi mujassamlashgan. She’rning boshlanmasiga e’tibor bersak, unda chorlov, Vatan sog’inchı yaqqol aks etgan. Vatanga nisbatan xokisorlik tuyg’ulari bilan birga uni yer sharining mashhur davlatlari bilan taqqoslaydi. Jumladan, “Rimni alishmasman bedapoyangga” kabi. Ana undan so’ng Vatanga alqovlar, uni peyzajini tasvirlash o’rin oladi. Bir go’shada suvlar oqmoqda, yana bir tarafda esa qirlar yastanib yotibdi deya tasvirlaydi shoir.

Xizmat safarlarida yurgan shoir chet davlatlarning odamlarini, ulardagи xarakterlar va taqdirlarni ko’rib, o’z Ona vatanidagi mehnatkash, soddadil xalq bilan solishtiradi.

“Sadoqat va vafo kuychisi” timsoli bo’lgan shoir Zulfiyaxonim aytganlaridek “Orqatog’lar” Muhammad Yusufni ham suyab, boshingni tik tut deb ta’kidlashar edi.

Chet ellarni tasvirlar ekan, unda ajoyib bir misra bor:

Parijning eng go’zal restoranlarin, Bitta tandiringga alishmasman men

Endi tasavvur qiling, shoir Parijning eng mashhur restoranlarini o’zining mo’jazgina qishlog’idagi tandirga alishmasligini aytadi. Inson ulg’ayar ekan unda bolalik xotiralari saqlanib qoladi va bu xotiralar umr o’tgani sayin eng go’zal va baxtli onlar bo’lib qoladi. Hamma ham tandirdan endi uzilgan shirmoy nonni ariqdagi shildirab oqib turgan suvga botirib yeyishni xush ko’radi-ku! Shunday emasmi axir. Shoirimiz ham beg’ubor bolalikni esga olib shu misralarni she’riga kiritgan bo’lsa ajabmas.

She’rning 4-bandida “sog’inch” tasviri aks etgan. Hali vatanidan ketganiga 3 kun bo’lgan, lekin shunga qaramay u o’z diyoriga oshiqmoqda. Jumladan, ne gapga ko’nib, ne til biladi, ko’zidan uyqu qochadi, halovati buzuladi va shunga amin bo’ladiki, barcha sayohat chala qoladigan bo’ldi.

5- bandda “Ishonch” tuyg’usi olg’a boradi. Shoir biladiki, Vatani barcha Vatanlardan ulug’ligini, eng yaqini shu tuproqligini hamda shuni ta’kidlaydi: “Bahorda Bahmalda tug’ilgan qo’zichoq, Arab ohusidan aziz va qadrli” ekanini.

Ohirgi bandda shoir “Iqror” tuyg’ularini sodda va ravon tilde bayon etadi. Vatanida o’tgan har bir on bayram- bazm misoli xush ekanini, Vatanidan bir muddat boshqa yerlarga safarga ketsa, o’ziga o’zining rahmi kelishini ta’kidlaydi.

She’rning avj nuqtasi bo’lib jaranglaydiganso’nggi misralari insonni shu O’zbekiston degan jannatmakon yurtda tug’ilganidan faxrlanish hissini yanada yaxshiroq tuyishini isbotlaydi. O’zbekistonni bilganlarga ta’zim qilishini, bilmaganlarga esa rahmi kelishini aytadi shoir.

O’zbekiston xalq shoiri otashnafas Muhammad Yusuf milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma’naviyatini, ongu- tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o’zlikni anglash, milliy g’urur vaiftixor tuyg’ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirish borasida yorqin iste’dodli, betakror badiiy asarlari, ibratli hayoti bilan kata iz qoldirgan qalamkash edi.

Shoir xalq dardini barilla aytgan, yurtga bo’lgan muhabbatini hech kimnikiga o’xshamagan misralarda olgani bilan, o’lmas qo’shiqlari bilan tanildi, shuxrat qozondi va

elining mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi. Asrlar osha ota-bobolarimizning orzusi bo'lgan Mustaqilligimizning ilk davrlaridayoq "Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston" deya kurash maydoniga o'tkir qalami bilan yushgan, Istiqlolni barilla kuylagan vijdoni uyg'oq ijodkor Muhammad Yusufning hayot yo'li ijodi va qizg'in ijtimoiy faoliyati biz yoshlар uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shoirning adabiy merosi juda boy va xalqchildir. Shulardan, "Tanish teraklar", "Bulbulga bir gapim bor", "Iltijo", "Uyqudag'i qiz", "Halima enam allalari", "Ishq kemasi", "Ko'nglimda bir yor", "Bevafo ko'p ekan", "Erka kiyik", "Yolg'onchi yor" kabi she'riy to'plamlari, saylanmalari nashr etildi.

1989-yilda "Uyqudag'i qiz" nomli she'riy to'plami uchun respublika Yoshlar tashkilotining mukofoti bilan taqdirlandi.

Shoirda o'zbek sheriysi va qo'shiqchilagini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun 1996-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. Shoirding ulkan ijodiy merosi va avlodlarga qoldirgan namunali hayoti uchun 1998-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi.

Muhammad Yusuf ijodining ayni gullab yashnagan paytda, Ellikqal'a tumanida she'riyat muhlislari bilan uchrashish maqsadidagi ijodiy safarida yurak xurujidan vafot etdi. 2001-yil 1-avgust 47 yoshida bu olamni tark etdilar. Qabri ona yurti bo'lgan Andijonda.

Shoirning xotirasini abadiylashtirish va avlodlarga yetkazish maqsadida Toshkent shahri va Marhamat tumanidagi ko'chalarga, shuningdek, Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi va Marhamat tumanidagi san'at mакtabiga shoir nomi berilgan.

Muhammad Yusuf she'rlari o'zbek adabiyotida chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning asarlari inson ma'naviyatini boyitish, milliy qadriyatlarni ulug'lash va yuksak insoniylik tamoyillarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Quyida Muhammad Yusuf she'rlarining tarbiyaviy ahamiyati bir necha jihatdan ko'rib chiqiladi:

1. Milliy o'zlik va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish

Muhammad Yusuf she'rlarida vatan, xalq, til va milliy qadriyatlar alohida o'rinn tutadi. U o'z she'rlarida o'zbek xalqining boy tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini ulug'laydi. Masalan, "O'zbegim" she'rida millatiga bo'lgan cheksiz mehr va g'urur yaqqol aks etadi. Bu yosh avlodni o'zligini anglashga va vatanga muhabbat bilan qarashga undaydi.

2. Oilaviy qadriyatlar va insoniy munosabatlari

Shoir oilaviy munosabatlarni, ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi muhabbatni juda samimiy ifoda etadi. Uning she'rlari orqali o'quvchilar mehr-oqibat, ehtirom va halollik kabi muhim qadriyatlarni anglab yetadilar. Misol uchun, "Onajon" she'ri onaga bo'lgan cheksiz mehrni ifoda etadi va oilaviy rishtalarning muhimligini tushuntiradi.

3. Ma'naviyat va odob-axloq darslari

Shoirning asarlari yoshlarni poklikka, mehnatsevarlikka, rostgo'ylikka va boshqalarga hurmat bilan qarashga chorlaydi. Muhammad Yusufning she'rlari o'quvchilarni yomon illatlardan uzoq turishga va yaxshi inson bo'lishga da'vat etadi.

4. Tabiatni sevishga chorlov

Shoir o'z she'rlarida tabiat go'zalligini, uning insonga bergen ne'matlarini madh etadi. Bu yoshlarni atrof-muhitga e'tiborli bo'lishga, tabiatni asrashga undaydi. Misol uchun, "Bahor keldi seni so'rab" she'rida bahorning nafisligi va tabiatning jozibasi o'quvchiga ruhiy zavq bag'ishlaydi.

5. Yosh avlodning kelajakka bo'lgan ishonchini oshirish

Muhammad Yusufning she'rlari optimizm va umidbaxsh ruhda yozilgan. Bu o'quvchilarni hayotga ijobiy qarashga, o'z kuchlariga ishonch bilan yondashishga va kelajak uchun rejalar tuzishga ilhomlantiradi.

Muhammad Yusufning she'rlari nafaqat ma'naviy zavq bag'ishlaydi, balki yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, uning asarlari ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa

Maqolamga xotima qilar ekanman sevimli shoirimiz bo'lgan Muhammad Yusuf ijodiga qancha ta'rif-u tavsif aytsam kamdek go'yo. Muhammad Yusuf – shoir, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati. U adabiyotimizga yetmishinchi yillar oxirida kirib kelgan va shu zahotiyoy u haqda betakror va esda qolarli timsollar yaratma oluvchi, bir qarashda oddiy hayot voqealigini chuqur va o'ziga xos tarzda badiiy shakllardan maromida foydalana oluvchi, jiddiy va ajoyib istedod sohibi desam, ayni rost gapni aytgan bo'laman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yusuf "Saylanma" asarlar
2. Maktab "Adabiyot" darsliklari.